

## XII. DEMOGRAFIK HOLAT VA O'RTACHA ISH HAQI

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-iyun holatiga viloyat doimiy aholisining soni **4 098,7** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 84,1 ming kishiga yoki 2,1 %ga ko'paydi. Shundan, 2 330,7 ming kishi - shahar joylarida (jami aholi sonining 56,9 %) va 1 768,0 ming kishi - qishloq joylarida (43,1 %) istiqomat qiladi.

### Viloyat hududi va aholi zichligi


(2024- yil 1- iyul holatiga)

	<i>tashkil topgan sana</i>	<i>hududi, ming kv. km</i>	<i>doimiy aholi soni, ming kishi</i>	<i>1 kv. km ga aholi zichligi, kishi</i>
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>15.01.1938</b>	<b>6,759</b>	<b>4 098,7</b>	<b>606,4</b>
<i>shaharlar:</i>				
Farg'ona	1877- yil	0,108	324,9	3 003,9
Qo'qon	X asr	0,064	311,1	4 835,3
Quvasoy	14.06.1954- yil	0,264	102,1	386,7
Marg'ilon	X asr	0,052	255,6	4 913,5
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	29.09.1926- yil	0,631	230,5	365,4
Qo'shtepa	16.04.1952- yil	0,366	210,5	574,5
Bag'dod	31.12.1964- yil	0,333	235,3	705,7
Buvayda	26.12.1973- yil	0,279	249,8	895,3
Beshariq	29.09.1926- yil	0,774	244,3	315,7
Quva	10.02.1939- yil	0,438	277,9	634,3
Uchko'prik	29.09.1926- yil	0,271	244,1	900,3
Rishton	09.01.1967- yil	0,307	218,8	712,0
So'x	27.02.1990- yil	0,221	84,6	383,3
Toshloq	12.04.1973- yil	0,243	219,6	905,0
O'zbekiston	17.04.1963- yil	0,674	238,1	353,3
Farg'ona	22.02.1964- yil	0,594	223,5	376,3
Dang'ara	07.12.1970- yil	0,427	178,9	419,3
Furqat	09.04.1992- yil	0,305	128,3	420,3
Yozyovon	27.12.1980- yil	0,407	120,8	296,8

Farg'ona viloyatining ma'muriy-hududiy tashkil topishi 1938-yilning 15- yanvaridan boshlanadi. Hududi 6,759 ming kvadrat kilometrni tashkil etadi yoki mamlakatimiz hududining 1,5 foiziga teng. Viloyatimiz shimoldan Namangan viloyati, sharqdan Andijon viloyati, janub tomondan Qirg'iziston Respublikasining O'sh hamda Batken viloyatlari va g'arbdan Tojikiston Respublikasining Xo'jand viloyati bilan chegaradosh. Viloyatning So'x tumani hamda Farg'ona tumanining Shohimardon va Yordon, Rishton tumanining Cho'ng'ara qishloqlari viloyat, Respublika hududidan tashqarida, Qirg'iziston Respublikasi hududida joylashgan.

## Farg'ona viloyati bo'yicha aholi zichligi

2024- yil 1- iyul holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi



Farg'ona viloyatida 2024- yil 1- iyul holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha 606,4 kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 12,4 kishiga ortgan (2023- yil 1-iyulda 1 kv.km.ga 594,0 kishi).

Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Marg'ilon shahrida 4 913,5 kishi, Qo'qon shahrida 4 835,3 kishi, Farg'ona shahrida 3 003,9 kishi, Toshloq tumanida 905,0 kishi, Buvayda tumanida 895,3 kishi, Uchko'prik tumanida 900,3 kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Yozyovon tumani 296,8 kishi, Beshariq tumanida 315,7 kishi, O'zbekiston tumanida 353,3 kishi, Oltiariq tumanida 365,4 kishi, Farg'ona tumanida 376,3 kishini tashkil etgan.

Viloyat ma'muriy hududiy bo'linishiga ko'ra 4 ta viloyat miqyosidagi shahar, 15 ta tuman, 5 ta tumanlar tasarrufidagi shaharlar, 194 ta shahar tipidagi posyolkalar, 999 ta qishloq aholi yashash punktlari hamda 1 062 ta mahalla fuqarolar yig'inlaridan tashkil topib, ularda **4 098,7** ming nafar aholi istiqomat qiladi. Viloyatning ma'muriy markazi Farg'ona shahridir.

Viloyatning iqlimi keskin kontinental, quruq. Tog' tizmalari Farg'ona vodiysiga sovuq havoning kirib kelishini to'sib turganligi bois, qishda ob-havo bir muncha mo'tadil. Yozi issiq, iyulning o'rtacha harorati 27,5°S, qishi nisbatan sovuq, yanvarning o'rtacha harorati -3°S. Vegetatsiya davri 217 kun, yillik o'rtacha yog'in miqdori 200-250 mm.ni tashkil etadi.

**Farg'ona viloyati hududlari bo'yicha doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot**  
(2024- yilning 1- iyul holatiga)

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, %da		
	jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>4 098,7</b>	<b>2 330,7</b>	<b>1 768,0</b>	<b>102,1</b>	<b>56,9</b>	<b>43,1</b>
<i>shaharlar:</i>						
Farg'ona	324,9	324,9	0,0	102,1	100,0	
Qo'qon	311,1	311,1	0,0	101,6	100,0	
Quvasoy	102,1	57,4	44,7	102,1	56,3	43,7
Marg'ilon	255,6	255,6	0,0	102,7	100,0	
<i>tumanlar:</i>						
Oltiariq	230,5	172,8	57,7	102,0	75,0	25,0
Qo'shtepa	210,5	81,0	129,5	102,2	38,5	61,5
Bag'dod	235,3	120,2	115,1	102,3	51,1	48,9
Buvayda	249,8	113,6	136,2	102,3	45,5	54,5
Beshariq	244,3	85,5	158,8	101,8	35,0	65,0
Quva	277,9	128,5	149,4	101,8	46,2	53,8
Uchko'prik	244,1	46,8	197,3	102,3	19,2	80,8
Rishton	218,8	139,4	79,4	102,1	63,7	36,3
So'x	84,6	53,3	31,3	102,4	63,0	37,0
Toshloq	219,6	51,8	167,8	101,5	23,6	76,4
O'zbekiston	238,1	108,4	129,7	102,4	45,5	54,5
Farg'ona	223,5	138,2	85,3	102,1	61,9	38,1
Dang'ara	178,9	39,5	139,4	102,4	22,1	77,9
Furqat	128,3	30,7	97,6	102,1	23,9	76,1
Yozyovon	120,8	72,0	48,8	102,0	59,6	40,4

Shaharlar ichida eng ko'p aholi Farg'ona shahrida 324,9 ming kishi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 %ga o'sgan) va tumanlarda eng ko'p aholi Quva tumanida bo'lib 277,9 ming kishini tashkil qiladi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,8 %ga o'sgan).

## Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

### Shahar

### Qishloq




# 56,9%

# 43,1%

## Yosh guruhlari va jinsi bo'yicha aholi tarkibi


2024- yil 1- yanvar holatiga



2024- yil 1- yanvar holatiga Farg‘ona viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo‘yicha (65 yoshgacha bo‘lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo‘lgan bolalar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya‘ni 249,7 ming kishini tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelib, 77,8 ming kishini tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo‘lgan qizlar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya‘ni 233,2 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelgan, ya‘ni 85,2 ming kishini tashkil etgan.

## Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2024- yil 1-iyul holatiga



**2 068,5** ming kishi


**2 030,2** ming kishi

## Yanvar-iyun oylarida viloyat bo‘yicha aholining tabiiy harakati koeffitsiyentlari

Ko‘rsatkichlar	ming kishi		1000 aholiga nisbatan	
	2023- yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil
Tug‘ilganlar	48,1	47,0	24,3	23,2
O‘lganlar	8,4	8,5	4,2	4,2
Nikohlar, <i>mingta</i>	10,2	9,8	5,1	4,8
Ajralishlar, <i>mingta</i>	3,1	2,4	1,6	1,2

## Aholining tabiiy harakati koeffitsiyenti

(2024- yilning yanvar-iyun holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille))



**Tug'ilish darajasi.** 2024- yilning yanvar-iyun oylari tug'ilganlar soni 47,0 ming kishini tashkil etdi va 2023- yilning shu davriga (48,1 ming kishi) nisbatan 1,1 ming kishiga kamaydi, shunga mos ravishda tug'ilish koeffitsiyenti 23,2 promilleni tashkil qildi.

Tug'ilish darajasining ko'payishi viloyatning Uchko'prik tumanida 27,4 dan 28,0 promille, kamayishi esa Qo'shtepa tumanida 28,5 dan 26,2 promillega, Dang'ara tumanida 27,0 dan 25,0 promillega kuzatildi.

**O'lim darajasi.** 2024-yilning yanvar-iyun oylarida o'lganlar soni **8 463** kishini tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga (**8 387** kishi) nisbatan 76 kishiga ko'paydi. Mos ravishda o'lim koeffitsiyenti **4,2** promilleni tashkil qildi (2023- yil yanvar-iyun oylarida **4,2** promille).

O'lganlar sonining ko'payishi viloyatimizning ba'zi shahar va tumanida yuz bergan bo'lib, eng ko'p o'lim Farg'ona shaharda 863 kishidan 5,4 promille, Qo'qon shaharda 709 kishidan 4,6 promillega kuzatildi, Quva tumanida 555 kishidan 4,0 promille, Marg'ilon shaharda 534 kishidan 4,2 promille, Beshariq tumanida 511 kishidan 4,2 promille.

O'lganlar umumiy sonining **62,2** %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **9,1** %i o'sma kasalliklaridan, **4,0** %i ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan, **6,2** %i baxtsiz hodisadan, **5,4** %i nafas olish organlari kasalliklaridan va **13,1** %i boshqa sabablarga ko'ra vafot etgan.

**Nikohlar va ajralishlar.** 2024-yilning yanvar-iyun oylari shahar, tuman hokimliklarining FHDYo bo‘limlarida **9 758** ta nikohlar va **2 370** ta ajralishlar ro‘yxatga olindi. Ming aholiga nisbatan 4,8 ta nikoh (2023- yilning tegishli davrida 5,1 ta) va 1,2 ta ajralishlar (2023- yilning tegishli davrida -1,6 ) to‘g‘ri keladi.

### **Yanvar-iyun oylarida tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni**

(birlikda)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2023-yil</i>	<i>2024-yil</i>	<i>2023-yil</i>	<i>2024-yil</i>
<b>Viloyat</b>	<b>10 193</b>	<b>9 758</b>	<b>3 106</b>	<b>2 370</b>
<i>shaharlar:</i>				
Farg‘ona	823	771	372	277
Qo‘qon	790	785	312	269
Quvasoy	210	219	102	75
Marg‘ilon	655	597	187	144
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	591	569	141	122
Qo‘shtepa	474	441	134	78
Bag‘dod	560	549	191	127
Buvayda	558	567	159	109
Beshariq	625	544	157	129
Quva	686	711	168	116
Uchko‘prik	580	548	162	130
Rishton	685	595	206	121
So‘x	322	335	61	51
Toshloq	493	433	105	97
O‘zbekiston	547	538	162	147
Farg‘ona	596	568	177	137
Dang‘ara	466	455	127	106
Furqat	288	313	96	81
Yozyovon	244	220	87	54

**Migratsiya.** Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatga ko'chib kelganlar soni **5 181** kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa **6 497** kishini tashkil qildi. Migratsiya saldosi minus **1 316** kishiga (2023-yilning shu davrida - minus **1 350** kishi) teng bo'ldi. Eng katta minus qoldiqlar Marg'ilon shahri (minus **491**) va Beshariq tumani (minus **301**) kuzatildi.


### Yanvar-iyun oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari

(kishi)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosi	
	2023-yil	2024-yil	2023-yil	2024-yil	2023-yil	2024-yil
<b>Viloyat</b>	<b>4 406</b>	<b>5 181</b>	<b>5 756</b>	<b>6 497</b>	<b>-1 350</b>	<b>-1 316</b>
<i>shaharlar</i>						
Farg'ona	2192	1809	1274	1283	918	526
Qo'qon	69	407	597	603	-528	-196
Quvasoy	225	201	157	197	68	4
Marg'ilon	13	226	481	717	-468	-491
<i>tumanlar</i>						
Oltiariq	84	114	191	210	-107	-96
Qo'shtepa	211	381	174	250	37	131
Bag'dod	6	27	167	205	-161	-178
Buvayda	76	102	206	187	-130	-85
Beshariq	128	64	331	365	-203	-301
Quva	109	177	316	335	-207	-158
Uchko'prik	67	63	166	252	-99	-189
Rishton	105	115	209	257	-104	-142
So'x	69	295	27	71	42	224
Toshloq	158	222	199	283	-41	-61
O'zbekiston	182	90	255	351	-73	-261
Farg'ona	232	440	599	441	-367	-1
Dang'ara	214	204	145	228	69	-24
Furqat	189	161	151	163	38	-2
Yozyovon	77	83	111	99	-34	-16


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 806,4 ming so'mni tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga nisbatan 16,8 %ga o'sdi. Eng yuqori o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Farg'ona shahrida 5 201,8 ming so'mni, Qo'qon shahrida 4 310,1 ming so'mga to'g'ri keldi.

## Yanvar-iyun oylari davomida o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi (ming so'mda)



### O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2024- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz ming so'mda)



O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining eng yuqori miqdori moliya va sug‘urta faoliyatiga to‘g‘ri kelib, 10 093,7 ming so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich qurilishda 3 524,5 ming so‘m, sanoatda 4 463,5 ming so‘m va ta‘lim sohasida 3 129,2 ming so‘mdan iborat bo‘ldi.

### O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi\*\*

(yanvar-iyun oylari qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so‘mda)

	2023-yil	2024-yil	O‘sish sur‘ati %
<b>Viloyat</b>	<b>3 260,1</b>	<b>3 806,4</b>	<b>116,8</b>
<i>shaharlar:</i>			
Farg‘ona	4 562,8	5 201,8	114,0
Qo‘qon	3 754,6	4 310,1	114,8
Quvasoy	3 195,6	3 989,8	124,9
Marg‘ilon	2 760,0	3 147,9	114,1
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	2 214,9	2 929,8	132,3
Qo‘shtepa	2 823,5	3 264,7	115,6
Bag‘dod	2 706,7	3 058,1	113,0
Buvayda	2 661,2	3 006,2	113,0
Beshariq	2 434,9	2 742,9	112,6
Quva	2 483,1	2 762,1	111,2
Uchko‘prik	2 421,1	3 497,7	144,5
Rishton	2 429,4	2 886,9	118,8
So‘x	2 634,9	3 184,1	120,8
Toshloq	3 469,3	4 165,1	120,1
O‘zbekiston	2 595,8	3 107,2	119,7
Farg‘ona	2 508,5	2 780,9	110,9
Dang‘ara	2 540,3	3 066,9	120,7
Furqat	2 789,1	3 007,6	107,8
Yozyovon	2 715,5	3 104,5	114,3

\*\**(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*